

O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI EKOLOGK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF QILISH MASALALARI

Mehriniso Nematullayeva

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada hozirgi kunda Respublikamizdagi ekologik muammolar , havoning keskin ifloslanishi, shaharlarning ifloslanishi, chiqindi muammolari va ekologik madaniyatni oshirish va muammolarni bartaraf qilish uchun chora tadbirlar va takliflar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *ekologik muammolar, chang bo‘ronlari, chiqindi muammolari, ekologik savodxonlik, atrof-muhitni himoya qilish, chora-tadbirlar ko‘lami.*

ANNOTATION

This article describes current environmental problems in our Republic, acute air pollution, urban pollution, waste problems, measures and proposals to increase ecological culture and eliminate problems.

Key words: *environmental problems, dust storms, waste problems, environmental literacy, environmental protection, scope of measures.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны текущие экологические проблемы в нашей Республике, острое загрязнение воздуха, загрязнение городов, проблемы с отходами, меры и предложения по повышению экологической культуры и устранению проблем.

Ключевые слова: *экологические проблемы, пыльные бури, проблемы отходов, экологическая грамотность, охрана окружающей среды, объем мероприятий.*

KIRISH

Hozirgi kunda ekologiya atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshilash dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Xususan Respublikamizda ekologik vaziyat keskin o‘zgarimoqda. Inson faoliyati ta’sirida ko‘plab antropogen omillar va ular orqasidan tabiiy omillarni yuzaga keltirib chiqarmoqda, havoning keskin isib ketishi , issiqxona effekti haddan tashqari ko‘payib ketishi, sanoat chiqindilari va maishiy chiqindilarning ko‘payishi bu albatta inson omili ta’siridir. Inson tabiatning a’zosi

sifatida u jamiyatning ham, tabiatning ham biologik bir qismidir. Insoniyat hayoti va faoliyati tabiat va biosferaning uyg'un sharoitiga bog'liq, faqatgina tabiatga salbiy ta'sir etmagan holda. Inson omili ta'sirida tabiat butkul o'zgarishi biosferadagi normal sharoitning buzilishiga olib keladi. Ilmiy texnika rivojlangan bir davrda uning yutuqlaridan noto'g'ri foydalanish biosferaning buzilishiga, bioxilma-xillikning yo'qolishiga, ekologiyaning tanazzulga uchrashiga olib keladi.

MUHOKAMA va MUNOZARA

Sayyoramizni toza suv bilan ta'minlash bugungi kunda jahon hamjamiyatining e'tiborini tortgan eng muhim global va ekologik muammolardan biridir. Sayyoramizning ko'plab mamlakatlari xususan O'zbekistonda ham neft va gaz kabi ta'biy yer osti boyliklariga ega bo'lishiga qaramasdan toza ichimlik suvi yetishmasligidan aziyat chekmoqdalar. Respublikamizda suvdan foydalanish tartibi va normalari to'g'ri yo'lga qo'yilmagan. Birgina qishloq xo'jaligi uchun qariyb 95% suv sarflanadi, qolgan 5% esa sanoatda, baliqchilikda, chorvachilikda, kommunal xo'jalikda va boshqa sohalarda ishlatiladi. Hozirgi kunda Respublikamizda toza suv sarfi bir kunlik miqdori bitta odam soniga 300-400 l ni tashkil qiladi. Ana endi bu ko'rsatkichni 35,6 mln ga ko'paytirsak 10800 mln l suv bir kunda sarflanadi, bu esa katta ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkich faqatgina toza ichimlik suv sarfi xolos, bundan ko'rinib turibdiki Respublikamizda suvdan oqilona foydalanish to'g'ri taqsimlanmagan. Rivojlangan mamlakatlarda insonning bir kunlik toza suv sarfi limiti 90-100 l ni tashkil qiladi. Hozirgi kunda Respublikamizda Suv va suvdan foydalanishda keng ko'lamlı chora tadbirlar tadbiriq etilmoqda va keying yillarda kunlik limitni 90 l ga tushirish ko'zda tutilgan.

Suvsiz hayot bo'lmaydi, yer osti suvlarining kun sayin pastlashi qurg'oqchil arid hududga aylanishiga, cho'llanishiga, yerlarning sho'rlashishiga, qishloq xo'jaligi qisqarib ketishiga, iqlimning keskin isib ketishiga, bioxilma-xillikning qashshoqlashishiga sababchi bo'ladi. Bu esa ekologik muammolardan biridir. Uning oldini olish uchun esa yashil hududlarni ko'paytirish va o'rmonzorlashtirishni keng yo'lga qo'yish kerak, uni rivojlantirish uchun sug'orish tizimi to'g'ri yo'lga qo'yish, xususan tomchilatib, yomg'irlatib, yer ostidan sug'orishni shu kabi samarali usullardan foydalanish joiz. Respublikamiz qurg'oqchil hudud bo'lganligi sababli, mavsumda ekilgan daraxtlar, ko'chatlar o'z samarasini berishi uchun muntazam parvarishni talab etadi, maqsad faqat yerga nihol qadash emas, balki yillar mobaynida parvarish qilib yashil hududni ko'paytirish va ekologik holatni yaxshilash.

Bundan tashqari Respublikamizni va butun jahonni qiynab kelgan chiqindi muammosidir, hozirgi kunda qattiq maishiy plastik chiqindilardan ifloslanish darajasi haddan ziyod oshgan. Bu atmosferani, gidrosferani, yer yuzini ifloslamoqda, hammaga ma'lumki plastik chiqindilar 100 yilda ham chirimaydi, uni qayta ishlash uchun esa

yuqori texnologiya va ko'p mablag'ni talab etadi. Yurtimizda plastik chiqindilarni qayta ishlash ko'rsatkichi juda past, chiqindining chiqarilishi esa juda yuqori. Rivojlangan mamlakatlarda plastik chiqindilar bilan zararlanish bir kunda inson organizmida 5 g ni tashkil etar ekan, katta-katta zavod va fabrikalar atmosferaga plastikni tutun yoki smog holatda ajratib chiqaradi va inson organizmiga singib ketadi. Bu organizmdan to'liq chiqib ketmaydi, u inson organizmga o'zlashtiriladi va o'tkir kasalliklarni yuzaga keltiradi. Faqatgina inson emas bundan o'simliklar, mikro va makro organizmlar, atmosfera juda katta zarar ko'radi. Dunyo mamlakatlarida plastik chiqindilarni qayta ishlab , undan turmushda juda ko'plab sohalarda foydalanadi, bu borada Shvetsiya yetakchi o'rinda ,misol uchun eshik va romlar, quvurlar, mebellar, maishiy texnika, qurilish va boshqa sohalarda. Chiqindilar biosferani zanjirini uzishi ko'plab turlarning yo'qolishiga ekologik toza muhitni qisqarishiga olib kelmoqda.

Undan tashqari keyingi yillarda iqlim o'zgarishi va atmosferaga katta miqdorda chang zarralari va bo'ronlari ko'tarilishi kuzatilmoqda, buning sababi yog'ingarchilikning kamayishi , daryo va dengiz sathining kamayishi va qurib ketishidir. O'zbekiston 2021 yil eng zaxarli atmosfera havosi bilan dunyoda 1 o'rinni egalladi, bu juda achinarli axvol. Shaharsozlik rivojlanib yashil hududlar qisqarmoqda, iqlim o'zgarishi hududlarni cho'llashishiga olib kelmoqda.

Respublikamizda atmosfera havosini yaxshilash va cho'llanishni oldini olish uchun kichik-kichik yashil hududlar tashkil etish, eko-parklarni ko'paytirish va sun'iy ko'lchalar bunyod qilish zarur. Undan oldin esa insonlarda ekologik savodxonlikni va madaniyatni oshirish lozim. Bizda hali hanuz ekologik madaniyat shakllanmagan , biz qachonki ekologik madaniyatni oiladan, o'zimizdan boshlamas ekanmiz "Ekologiya va atrof-muhitni asrash" bioxilma-xillikni asrash, mavjud tabiiy resurslarni asrash va oqilona foydalanish kabi so'zlar faqat og'izda qolib ketaveradi. Unga avvalo o'zimiz amal qilmas ekanmiz tabiat hamon ekologik muammolar qurshovida qolaveradi.

Hayotimizda bir noto'g'ri jumla bor "Hamma narsa inson manfaati uchun" dir degan, men buni aksini aytgan bo'lar edim. Tabiat inson uchun emas, balki u o'zi uchun o'zi kerak! Chunki u o'zining rivojlanishi, shakllanishi, bioxilma-xilligini boyitishi, tabiiy resurslarga to'yinishi, o'zining oziqlanishi uchun ham o'ziga kerak. Biz tabiatga kerakli narsalarni bera olmaymiz faqat undan olamiz xolos.Tabiat bergan ne'matlarni o'z manfaatimiz yo'lida qo'pollik bilan foydalanamiz va munosib javob qaytarmaymiz. Biz faqat ongli mavjudot sifatida tabiatga hukmron bo'lganmiz va "tabiat tabiiy resurslar inson manfaati uchun" degan noto'g'ri fikrni yaratib olganmiz. Tabiat ekologiya faqat inson uchun emas , jamiyki mikro va makro organizmlar uchun, flora uchun, atmosfera biosfera uchun kerak, bu bir zanjir uning bittasi uzilsa ham tabiatning butunlay yo'q bo'lib ketishiga olib keladi.

XULOSA

Ekologik muammolarni yumshatish va chora tadbirlarni samarali hayotga tadbiq qilish uchun yuqorida aytilganidek, eng avvalo insonlar ongida yashab turgan muhitga nisbatan ekologik madaniyatni va savodxonlikni rivojlantirish lozim, har bir shaxs buni o‘zidan o‘z oilasidan va kichik –kichik jamiyatdan boshlamog‘i lozim.

Yashil hududlarni ko‘paytirish, Respublikamiz bo‘ylab turli ekologik aksiyalar joriy etish, yoshlarni ko‘proq tabiat bilan bog‘lash, “Yashilmakon umummilliy loyihasini” keng ko‘lamda qamrab olish, tabiatga munosabatni bog‘chadan boshlash, eko-parklar bunyod qilish, kichik hovuzchalar yaratish, ko‘proq tabiatni ekologiyani asrash haqida plakatlarni yoki shunga o‘xshash reklamalarni ko‘paytirish lozim. **5-iyun** “ Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish” kuni , ammo uni soha mutaxasislari va ekologlardan boshqa hech kim bilmaydi, shu kunni kengroq targ‘ib qilish lozim.

Keyingi navbat turli plastik chiqindilarni qayta ishlab ko‘p yillar davomida foydalanishga mo‘ljallab hayotga taqbiq etish, bir martalik plastik xaltalardan voz kechib tabiiy mato xaltalarga o‘tish, bu kam foizlarda bo‘lsa ham chiqindi chiqishini kamaytiradi.

Ko‘chalarda axlat qutilarini ko‘paytirish va etika-estetika bilan yondashish lozim. Bu kichik ko‘rsatkichlarda rivojlansa ham ekologiyani ozroq bo‘lsada toza saqlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. www.xs.uz
2. www.water.gov.uz
3. A. Sattorov, Q.Allanov, B.Abdumo‘minov, “Global iqlim o‘zgarishi, uning oqibatlari va unga moslashish” Termiz 2019.